

Aprel, 2025-Yil

“YASHIL” MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY RISKLARNI SUG'URTALASH

Rizayev Nurbek Kadirovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

<https://orcid.org/0000-0001-5374-8045>

O'smonjonov Muxammadisxoq O'tkirbek o'g'li

“University of Economics and Pedagogy” NOTM Iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi.

muxammadisxoqosmonjonov@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0004-7005-7202>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15286842>

Annotatsiya. *Ekologik risklar nafaqat ijtimoiy hayotga xavf soladi, balki xo'jalik yurituvchi subyektlarda katta moliyaviy yoqotishlarga sabab bo'ladi. Ushbu sohada “yashil” moliyaviy instrumentlarni joriy qilinishi moliyaviy risklarni kamaytirish instrumenti sifatida maydonga chiqadi. Maqolada “yashil” iqtisodiyotga o'tish istiqbollari, “yashil” moliyalashtirish tushunchasiga oid qarashlar, rivojlanish tendensiyalari, va “yashil” moliyalashtirishni tashkil etishda vujudga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy risklar va “yashil” moliyaviy instrumentlar orqali bartaraf etishi ko'zlangan moliyaviy risklarni sug'urtalash tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *“yashil” iqtisodiyot, “yashil” moliyalashtirish, “yashil” obligatsiya, moliyaviy risklar, sug'urtalash, kafolat sug'urtasi.*

Kirish.

Hozirgi raqamlashtirish zamonida jahon moliya bozorida “yashil” instrumentlar va mas'uliyatli investitsiyalarning ulushini oshishiga hizmat qilayotgan “Yashil moliyalashtirish” (green finance) tushunchasi XX asr oxiri va XXI asr boshlarida atrof-muhit muammolarining kuchayishi, iqlim o'zgarishi xavotirlari va barqaror rivojlanishga bo'lgan ehtiyoj ortishi natijasida shakllanib, bugungi kunda dolzarb milliy va global maqsadlarni ifoda etuvchi yashil iqtisodiyotga o'tishning ajralmas bo'g'ini sifatida ko'rilmogda. Ekologik jihatdan mas'uliyatli investitsiyalar (ESG – Environmental, Social, Governance) tushunchasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan “Yashil moliyalashtirish” terminidagi “Yashil” so'zi atrof-muhitni himoya qilish, qayta tiklanuvchi energiya va barqarorlik ramzi sifatida qo'llanila boshladi. “Yashil moliyalashtirish” (ya'ni atrof – muhitni himoya qiluvchi loyihalarga moliyaviy resurslarni ajratish)da moliyaviy risklarni sug'urtalash – bu barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vosita hisoblanadi.

Bu jarayonda atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, iqtisodiy foyda olish maqsad qo'yiladi.

Aprél, 2025-Yil

Quyida yashil moliyalashtirishdagi asosiy risklar va ularni sug'urtalash usullari haqida fikrlar yuritilgan:

Yashil moliyalashtirishdagi asosiy risklar:

✓ Texnologik risklar: Yangi ekologik toza texnologiyalarning samaradorligi yoki ishlash istiqbollari noaniq bo'lishi. Bunda "yashil" moliyalashtirish instrumentlarning qo'llanishi ekologiyaga ta'sirini o'z vaqtida va to'g'ri baholash uchun texnik imkoniyatlarning cheklanganligi, mavjud emasligi yohud yetarli darajada emasligi bilan izohlanadi. Buning asosiy sabablaridan ushbu texnik ta'minotning qimmatligi; soha mutahassislarining taqchilligi, sun'iy intellekt, sun'iy yoldosh monitoring, katta hajmdagi ma'lumotlar tahlili kabi axborot texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizm va infratrakturaning takomillashmaganligi hisoblanadi;

Texnologik risklardagi eng katta muammolardan biri ko'pgina yashil texnologiyalar (masalan, uglerodni tutish va saqlash – CCS, yangi batareya tizimlari) hali tajriba bosqichida yoki keng miqyosda sinovdan o'tmaganligidir. Bu esa kutilgan samara bermasligi yoki texnik nosozliklar tufayli loyiha barbod bo'lishi mumkin. Ushbu jarayonga misol tariqasida 2017-yilda Avstraliyadagi "Clean Energy Finance Corporation" (CEFC) tomonidan moliyalashtirilgan ba'zi quyosh energiyasi loyihalari batareya saqlash tizimlarining ishlamay qolishi tufayli zarar ko'rdi.

✓ Bozor risklari: Atrof-muhitga mos mahsulotlar yoki xizmatlarga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi. Yashil moliyalashtirish (green finance) bozor risklari – bu ekologik jihatdan barqaror loyihalar va moliyaviy mahsulotlarning bozor talabi, narxlash, raqobatbardoshlik va iqtisodiy omillar tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraishi ehtimoli. Bu risklar yashil investitsiyalarning rentabelligiga va ularning keng miqyosda qabul qilinishiga ta'sir qiladi.

✓ Siyosiy va tartibga solish risklari: Davlatning ekologik qonunlarining o'zgarishi yoki subsidiyalarning bekor qilinishi.

✓ Kredit riski: Yashil loyihalarga sarmoya kiritgan tashkilotlarning qarzlarini to'lay olmasligi.

✓ Tabiiy ofatlar va iqlim risklari: Ob-havo o'zgarishi tufayli qayta tiklanuvchi energiya manbalari ishlashining pasayishi (masalan, quyosh energiyasi tizimlarining quyoshsiz davrlarda ishlamasligi).

Yashil risklarni sug'urtalash usullari:

➤ Maxsus yashil sug'urta mahsulotlari: Sug'urta kompaniyalari ekologik loyihalar uchun mo'ljallangan polislarini taklif qiladi (masalan, quyosh yoki shamol energiyasi loyihalari uchun texnologik ishlamay qolish riskini qoplash).

Aprel, 2025-Yil

➤ Kafolatlar va davlat sug'urtasi: Davlatlar yashil energiya loyihalariga kafolatlar berishi yoki sug'urta qoplamalari orqali investorlarni rag'batlantirishi mumkin (masalan, Atrof-muhitni himoya qilish agentliklari tomonidan taqdim etilgan garantiyalar).

➤ Kredit sug'urtasi: Xalqaro moliya institutlari (masalan, Xalqaro moliya korporatsiyasi - IFC) yashil loyihalarga kredit sug'urtasi xizmatlarini ko'rsatadi.

➤ Parametrik sug'urta: Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklar uchun oldindan belgilangan shartlar (masalan, yog'ingarchilik miqdori yoki harorat o'zgarishi) asosida to'lovlar amalga oshiriladi.

➤ Karbon sug'urtasi: Uglerod chiqindilari savdosidagi narx o'zgarishi yoki karbon kreditlarining qimmatlashuvi kabi risklarni qoplash.

Yashil moliyalashtirish jarayonida har bir tashkilot beixtiyor risklarga to'qnash keladi.

Aynan shu jarayonda risklarning xavfini kamaytirish va zararini qisman bo'lsada qoplash uchun risklarni sug'urtalash talab etiladi. Keling endi yashil sug'urtaning afzalliklarini ko'rib chiqsak. Birinchi navbatda yashil sug'urtaning eng asosiy afzalligi hisoblangan investitsiyalarni rag'batlantirishni ko'rsatish mumkin. Bu esa Risklarni kamaytirib, yashil loyihalarga xususiy sarmoyani jalb qilish. Barqarorlikni ta'minlash: Atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirish.

Xalqaro standartlarga moslik: PCAF (Partnership for Carbon Accounting Financials) yoki TCFD (Task Force on Climate-related Financial Disclosures) kabi tashkilotlarning talablariga javob berish.

Adabiyotlar sharhi.

“Yashil” moliyalashtirish nisbatan yangi yo'nalish bo'lishiga qaramay, bugungi kunda turli olimlar, moliyaviy institutlar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlarida bu borada metodologik yondashuvlar takomillashtirilib kelinmoqda. Jumladan, iqtisodchi olimlardan T.A.Naynedova “yashil” moliyalashtirish deganda “yashil” loyihalarni moliyalashtirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish sifatida qaragan (Найденкова, Новокшенова, 2022) bo'lsa, C.C.Polonik fikriga ko'ra ““Yashil” investitsiyalar - mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi kontekstida ekologik foyda keltiradigan, xususan, havo, suv va tuproq ifloslanishini kamaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, iqlim o'zgarishini yumshatish, atrof-muhitga antropogen ta'sirni hisobga olish bo'yicha chora- tadbirlar tizimini kengaytirish kabi maqsadli ekologik investitsiyalar tushuniladi” (Полоник, 2018) deb izoh keltirgan.

Xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlarida esa, xususan, kapital bozori xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra: ““Yashil” investitsiyalar - iqlim o'zgarishini

Aprel, 2025-Yil

sekinlashtirish, ifloslanishga qarshi kurashish, biologik xilma-xillikni saqlash kabi ekologik muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish hisoblanadi”.

Yashil moliya sintezi hisobotida esa, ““Yashil” investitsiyalar - ekologik barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishga hissa qo‘shuvchi va ekologik foyda keltiradigan loyihalar hisoblanadi” deb ta’rif keltirilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda ekologik risklarning keskinlashuvi korxonalar, investorlar va biznes egalarining moliyaviy-ho‘jalik faoliyatlariga katta moliyaviy yo‘qotishlarni olib kelishi, ularning operatsion faoliyatida ushbu risklarga doimiy ravishda inobatga olish, yumshatish choralari ko‘rish, ekologiyani qo‘llab-quvvatlovchi loyihalarga investitsiya kiritish yo‘li bilan amalga oshirish mumkinligi “yashil” iqtisodiotning rivojlanib takomillashib borayotgan sohaga aylanishiga yo‘l ochmoqda.

Xususan, ushbu tarmoqni rivojlantirishda hozirda “yashil” investitsiyalarni kiritish va “yashil” moliyalashtirish usullaridan foydalanish uchun 4 ta ustuvor yo‘nalish mavjud.

Yashil risklarni sug‘urtalash (ya’ni ekologik risklarni sug‘urtalash) natijalari ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik jihatdan muhim oqibatlariga olib keladi. Bu turdagi sug‘urtalar atrof-muhitni ifloslanish, iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar va boshqa ekologik xavflardan himoya qilishga qaratilgan.

Quyida yashil risklarni sug‘urtalashning asosiy natijalari va samaralari keltirilgan:

1. Atrof-muhitni himoya qilish
2. Korxonalar va investorlar uchun xavfsizlik
3. Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash
4. Qonuniy va regulyator talablarga moslik
5. Ijtimoiy mas’uliyat va obro‘ni oshirish
6. Innovatsiyalarni rag‘batlantirish
7. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish

Yashil risklarni sug‘urtalash nafaqat atrof-muhitni saqlab qolish, balki barqaror iqtisodiyot va ijtimoiy farovonlik uchun ham muhimdir. Bu yondashuv korxonalar, davlatlar va jamiyat uchun uzoq muddatli foyda keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Sustainable Finance. High-level definitions [Electronic resource] // International Capital Market Association. – Mode of access:

Aprel, 2025-Yil

[https://www.icmagroup.org/assets/documents/Regulatory/
Green-Bonds/Sustainable-
Finance-High-Level-Definitions](https://www.icmagroup.org/assets/documents/Regulatory/Green-Bonds/Sustainable-Finance-High-Level-Definitions)

2. Green Finance Synthesis report [Electronic resource] // G20. – 2016. – Mode of access:
[http://www.g20.utoronto.ca/2016/
green- finance-synthesis.pdf](http://www.g20.utoronto.ca/2016/green-finance-synthesis.pdf). – Date of access:
06.06.2023.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH